



MATNDA ENKRATIK DISKURS

*Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori*

Annotatsiya. Har qanday badiiy asar matn darajasiga ko‘tarilishi uchun u eng avvalo, yetuk adabiy-badiiy tizim darajasiga ko‘tarilishi lozim. Bunday barkamol tizimning yuzaga kelishi muallifning iste’dod darajasi, uning ijodkorlik malakasini qay darajada egallagani bilan bog‘liq, albatta. Ushbu maqolada romanning matn sifatida murakkab badiiy-estetik strukturaga egaligi va bu strukturada nafaqat qahramonlarning shaxsiy turmushi, oilaviy hayoti, sevgi sarguzashtlari, ularning o‘zi va yaqinlari haqidagi o‘y-fikr va mulohazalari, shuningdek, jamiyatning muayyan bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan bog‘liq ahvoli, xalq, millat, mamlakat, davlat, bashariyat miqyosidagi muammolar, guruhlar, tabaqalar orasidagi munosabatlar o‘z badiiy ifodasi hamda bunday aloqa-bog‘lanishlarning enkratik diskursda ifodalanishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy matn, roman, intellektual, estetik tamoyillar, konseptsiya, diskurs, roviy-kitobxon, adresant, adresat, strukturalizm, poststrukturalizm, semiotika, lisoniy qurilma.

ENCRATIC DISCOURSE IN THE TEXT

Abstract: For any literary work to elevate to the level of a text, it must first rise to the level of a mature literary-aesthetic system. The emergence of such a refined system is, of course, related to the level of the author’s talent and their mastery of creative skills. This article discusses the novel as a text with a complex artistic-aesthetic structure. Within this structure, not only the personal life, family experiences, love adventures, thoughts and reflections of the characters about themselves and their loved ones, but also their social-political state related to the social-political system of society at a particular time, as well as issues concerning the people, nation, country, and humanity, and the relationships between groups and social classes are expressed in artistic form. The representation of these relationships in encratic discourse is also explored.

Keywords: Literary text, novel, intellectual, aesthetic principles, concept, discourse, narrator-reader, addressee, addressor, structuralism, poststructuralism, semiotics, linguistic structure.

ЭНКРАТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС В ТЕКСТЕ

Аннотация: Для того чтобы любое произведение стало текстом, оно должно, прежде всего, подняться на уровень зрелой литературно-эстетической системы.

Возникновение такой совершенной системы, конечно, связано с уровнем таланта автора и его мастерством в овладении творческими навыками. В статье рассматривается роман как текст с комплексной художественно-эстетической структурой. В этой структуре выражаются не только личная жизнь персонажей, их семейные переживания, любовные приключения, мысли и размышления о себе и своих близких, но и их социально-политическое положение, связанное с социально-политической системой общества того времени, а также вопросы, касающиеся народа, нации, страны, человечества, отношения между группами и социальными классами, которые выражаются в художественной форме. Также рассматривается выражение этих отношений в энкратическом дискурсе.

Ключевые слова: Литературный текст, роман, интеллектуальные, эстетические принципы, концепция, дискурс, рассказчик-чтец, адресат, адресант, структуризм, постструктурализм, семиотика, лингвистическая структура.

Kirish. Har qanday badiiy asar matn darajasiga ko‘tarilishi uchun u eng avvalo, yetuk adabiy-badiiy tizim darajasiga ko‘tarilishi lozim. Bunday barkamol tizimning yuzaga kelishi muallifning iste’dod darajasi, uning ijodkorlik malakasini qay darajada egallagani bilan bog‘liq, albatta. Shu bilan birga, badiiy ijod namunasi haqiqiy san’at namunasiga aylanishi uchun unda moziy va hayot haqiqati tarixiylik mezonlariga muvofiq badiiy ifoda topishi zarur bo‘ladi. Faqat shunday asarlarga matn darajasiga ko‘tarila oladi hamda bashariyat adabiy-badiiy xazinasining o‘lmas durdonalari sirasidan o‘rin oladi.

Sovet davriga mansub XX asrning 20-50-yillarida yuzaga kelgan ko‘pgina asarlar sotsialistik realizmning qoliplari asosida yuzaga kelib, o‘ta mafkuraviylashgani, buning oqibatida badiylik mezonlari asosida yaratilmagani uchun matnning yuksak talablariga to‘la-to‘kis javob bera olmagan, shu boisdan ular adabiy-badiiy jarayon tarixida muvaqqat bir o‘ringagina ega bo‘ldilar. Bu hodisani roman janri misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu davrdagi milliy roman tarixiga nazar tashlasak, yirik epik janrga oid o‘ziga xos xususiyatni ilg‘aymiz. Asosan ushbu muddatda yaratilgan tarixiy romanlarga badiiyat nuqtai nazaridan adabiy-poetik qimmatini saqlab qolgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sovet zamonining yuqorida qayd etilgan bosqichi (yigirmanchi asrning 20-50-yillari)da yaratilgan zamонaviy mavzudagi aksariyat romanlarda hayot haqiqatini realistik tamoyillar asosida badiiy in’ikos ettirish imkoniyatlari cheklanganligi sababli ularning matn, ya’ni badiiy-g‘oyaviy jihatdan mukammal badiiy-estetik qurilma darajasiga ko‘tarila olmaganligini ko‘rish mumkin. Shu boisdan o‘sha yillarda, hatto sovet jamiyatining bir qadar erkinlashgan bosqichi (yigirmanchi asrning 60-80-yillari) da ham milliy ozodlik va jadidchilik harakatiga oid tarixiy ahamiyatga ega voqeа-hodisalarни haqqoniy yoritishning iloji bo‘lmagan. Ammo har qanday hollarda mustasno hollar bo‘ladi. “Sarob” fenomeni ana shunday adabiy voqealar sirasiga mansub. Biz maqolada ushbu romanni enkratik diskurs muammosi bo‘yicha tadqiq etish davomida mazkur qarashni isbotlashga harakat qilamiz.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, badiiy matn mohiyati, uning yetakchi falsafiy-estetik konsepsiysi yozuvchi-kitobxon diskursi jarayonida yuzaga chiqadi va oydinlashadi. Bir davr (masalan, sovet davri) kitobxonlari tomonidan matndan olingan taassurotlar, fikr-mulohaza, xulosalar boshqa zamon (milliy Mustaqillik yillari) adabiyot muxlislari tomonidan yangicha, oldingi nuqtai nazarlardan jiddiy, hatto keskin farqlanishi mumkin. Chinakam badiiyat namunasini, strukturalizm va semiotika atamasi bilan aytganda, matnni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyotning har bir mavsumi ana shunday yangicha qabul qiladi, uni o‘z davrining intellektual, estetik tamoyillari, talab va ehtiyojlari doirasida tahlil qiladi va undagi yangidan yangi xususiyatlarni kashf etadi. Alisher Navoiyning “Xazoinul-maoniy” lirik majmuasi, “Xamsa”si tarkibiga kirgan yaratmalar, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani, Rauf Parfining sonetlari va sonetlardan tashkil topgan she’rlari badiiy matn talablariga to‘la-to‘kis javob bera oladigan badiiyat durdonalaridir. Biz “Sarob”ni akrativ diskurs asosida tahlil qilish jarayonida uning matn talablariga muvofiq kelishini ko‘rdik. Endilikda esa ishimizni davom ettirib, romanni akrativ diskurs muammoasi asosida o‘rganamiz.

Akrativ diskurs badiiy matnda quyidagi tarzda yuzaga chiqadi:

- 1) roviy va adresat muloqoti;
- 2) matn syujetida ishtirok etgan personajlarning o‘zaro kommunikativ munosabati orqali.

Dastlab roviy yoxud bayonchi bilan adresat (kitobxon) muloqotida namoyon bo‘ladigan diskurs shakliga to‘xtalamiz. Bu o‘rinda bayonchining kimligi, uning muallifga aloqadorligi haqida ham aytish kerak bo‘ladi. An’anaviy adabiyotshunoslikda odatda, roviy muallifga tenglashtiriladi, badiiy asarda personajlar nutqidan tashqarida bo‘lgan bayon, tasvir mulohaza, qarashlar ijodkorga taalluqli degan nuqtai nazar oldinga suriladi. Poststruktural ta’limotlarda esa roviyga muallifdan jiddiy farq qiladigan alohida bir obraz sifatida qaraladi. Rolan Bartning “Muallifning o‘limi” deb atalgan mo‘jaz tadqiqotida bu haqda shunday deyilgan:

“...если о чем-либо рассказывается ради самого рассказа, а не ради прямого воздействия на действительность, то есть, в конечном счете, вне какой-либо функции, кроме символической деятельности как таковой, - то голос отрывается от своего источника, для автора наступает смерть, и здесь-то начинается письмо”.

(“...agar pirovardda timsoliy faoliyatga oid bo‘lmagan qandaydir vazifadan tashqari voqelikka to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etish uchun emas, balki hodisaning o‘zi uchungina fikr bayon ifodalananayotganda, ovoz o‘z manbasidan uziladi, muallif uchun o‘lim boshlanadi va aynan shu yerda matn boshlanadi”.)

Tadqiqotchi Bahoroy Shukurova esa o‘zbek hikoyachiligi poetikasiga bag‘ishlangan dissertasiyasida R.Bart nazariyasiga asoslangan holda shunday yozadi: “roviy muallif nutqini shartli ravishda ifoda etar ekan, “konkretlashmagan uchinchi shaxs” yoxud “men” bo‘lishidan qat’iy nazar, muallif nutqini ifodalaydi, ammo bu bevosita emas, bilvosita ifoda bo‘lib, badiiy nutq jarayonidagina yuzaga keladi, u ijodiy tasavvur mahsuli bo‘lganidan, muallifga tenglashtirilishi mumkin emas. Xuddi shu sabablarga ko‘ra roviy so‘z san’atkorining turli

asarlarida turlicha qiyofa va ovoz bilan namoyon bo‘ladi. Ular xarakter, tabiat, dunyoqarash, tafakkur va madaniyat darajasi nuqtai nazaridan bir-biridan va hatto muallifdan jiddiy farqlanib turadi”.

Chindan ham matn bo‘yicha tekshirish va tahlillar matn bayonchisining muallifdan hamisha farqlanishini ko‘rsatadi. Bu hodisa matnning muallifga tobe bo‘lmagan mustaqil poetik tizim ekanligidan dalolat beradi. U muallifga emas, o‘z tarkibidagi birlik (leksiya)larda ifoda topgan belgilarning o‘zaro harakatiga, umumadabiy qonuniyat va tamoyillarga bo‘ysunadi, natijada Rolan Bart ko‘rsatganidek, matn ijodkordan uilib, o‘z mustaqilligini namoyish eta boshlaydi. Bunday hol qalam sohibining iste’dodi, mehnatini kamsitmaydi, chunki qalam sohibi matn yuzaga kelishi ishtirokchisidir. Bu yozuvchi uchun ulkan sharaf hisoblanadi, negaki u abadiyatga daxldor badiiy durdona yaratish jarayoniga bevosita daxldor shaxsdir.

Matnning yuqorida ko‘rsatilgan xususiyati unga taalluqli bo‘lgan har bir badiiyat namunasiga tegishlidir. Biz “Sarob” romaniga ham matn sifatida yondashamiz va tadqiq jarayonida shunday badiiy-poetik tizim talablariga nechog‘lik javob bera olishini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

“Sarob” matni qurilmasida enkratik diskurs miqyosining kengligi, ko‘lamdorligi bilan ajralib turadi. Bu hodisaning boisi shundaki, roman katta epik janr sifatida faqat qahramon(lar)ning shaxsiy hayoti, uning ichki olami, ruhiy kechinmalari, boshdan kechirgan sarguzashtlari tasviri bilangina kifoyalanib qolmaydi. U katta bir davrni imkon darajasida kengroq, teranroq qamrab olishga intiladi, o‘z badiiy hududida xalq, millat, insoniyatning yuksak intilishlari, urf-odatlari, milliy mentaliteti, tabaqa, guruhlararo aloqa-bog‘lanishlarni murosa va ziddiyatlarni, davlat boshqaruvi, siyosat, mafkura, turli-tuman dunyoqarashlarni badiiy tajassum ettiradi. Ushbu janrning serko‘lamligini ilm ahli orasida birinchi bo‘lib payqagan olmon mutafakkiri Gegel romanni “yangi zamon epopeyasi” deb atagan edi.

“Sarob”da ham mana shunday romanga xos tafakkur, ya’ni tasvir, ifodaning ulkanligiga mos bo‘lgan fikr qamrovi yorqin ko‘rinib turadi. Unda o‘tgan asrning alg‘ov-dalg‘ovli, shiddatli fikr va g‘oyalar kurashiga boy yigirmanchi-o‘ttizinch yillardagi hayot, tafakkur tarzi tarixiylik prinsiplariga muvofiq o‘z badiiy ifodasini topgan. Bularning barchasi badiiy matndagi enkratik diskursda badiiy voqelangan.

Tarixdan ma’lumki, mazkur davrda “yer islohoti”, “madaniy inqilob” kompaniyalarining avj olib, xususiy mulk talon-taroj etilgan, “eski ziyolilar”(islom dini bo‘yicha mutaxassislar, jadidlar) ta’qib ostiga olinib, qatag‘on etilgan. Shu bilan birga, “yangi g‘oyalar” (sho‘roviy dunyoqarash aqidalari) faol targ‘ib etilgan, yosh avlod tafakkuriga ana shunday muvaqqat qarashlar izchillik bilan singdirib borilgan.

Olmon faylasufi Yu. Xabermas shunday yozgan edi: «Diskurs – ijtimoiy hayot qadriyat va mezonlarini tanqidiy ko‘rib chiqishga mo‘ljallangan nutqiy muloqotdir».

Olimning bu fikri birinchi navbatda badiiy matn tarkibidagi enkratik diskursga taalluqlidir.

“Sarob”ning birinchi faslidayoq enkratik diskursga aloqador muloqot o‘z ifodasini topgan:

“Qiz bir gap bahonasi bilan Saidiyning yuziga bir lahma tikildi-yu, negadir qizardi:

- O‘zi-ku bizni ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkashu nomehnatkash deb xalqni ajratgani nimasi!..

- Men ham kecha kelgan edim. Bir professor firqa yacheykasining kotibi bilan urishdi: “O‘zlaring o‘qit deysizlar-da, yana chek qo‘yasizlar” deydi”.

Sovet davri kitobxonasi (adresat) aksar holda bunday kommunikasiyani boy oilaga mansub erkatoy qiz va badavlat tabaqaga moyil yigitning “yangi zamon talablari”dan noroziligi tarzida tushungan. Ammo aslida mazkur muloqotda o‘scha zamon (yigirmanchi asrning 20-50 yillari)dagi ta’limga oid g‘ayriinsoniy va g‘ayrimilliy taqiqlar haqida gap bormoqda. Sharq, xususan, Turkiston (Movarounnahr) ta’lim tarixiga nazar solsak, o‘tmishda maktab va madrasalarga qabul qilishda bunday cheklov mavjud bo‘lmagan. Ta’lim dargohlari eshigi barcha ilmsevar yoshlar uchun ochiq bo‘lgan. To‘g‘ri, avvalgi mabatlarda o‘qitish uchun ma’lum miqdorda pul olingan, ammo bunday mablag‘ har bir oilaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan. Madrasalar esa vaqf mablag‘lari asosida faoliyat yuritgan. Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”ida ko‘rsatilganidek, talabalar o‘qish uchun pul to‘lamaganlar, aksincha ilg‘or tolibi ilmlarga nafaqa (stipendiya) berilgan. Masalaga shu nuqtai nazardan qarasak, universitet va boshqa oliy ta’lim dlargohlariga qabulni sinfiy mansublikka ko‘ra belgilash shuni ko‘rsatadiki, mustabid hokimiyat bunday cheklovlari orqali xalqqa “ilmu urfon berish”ni emas, uni ma’rifat va bilimdan uzoqda saqlab turishni niyat qilgani ayonlashadi. Aslida bu siyosat ancha oldin – chor Rossiyasi Turkistonni zabit etib, zulm-zo‘ravonlikka asoslangan mustamlakachilik tuzumini o‘rnatgan vaqtdayoq boshlangan edi. Turkiston general gubernatori Kuropatkin o‘scha paytda Turkiston aholisini ilmu ma’rifatdan uzoqda saqlaganliklari haqida mammuniyat bilan yozgan edi. Anglashiladiki, chor Rossiyasining merosxo‘ri va davomchisi bo‘lgan sovet sultanatida ham mustamlaka yurt (Turkiston) aholisiga shovinistik nuqtai nazar bilan qarash, uni ma’rifat va intellektual taraqqiyotdan uzoqda saqlash siyosati izchil va ko‘lamli tarzda davom ettirilgan. Binobarin, roman boshlanishidagi asosiy qahramonlar bo‘lgan Rahimjon Saidiy hamda Munisxonning muloqoti aks etgan enkratik diskursdagi belgi mana shunday mash’um siyosat mohiyatini adresatga konnotativ tarzda ko‘rsatmoqda. Quyidagi chizmada mazkur belgining shakl va konseptini ko‘rsatamiz:

A

D

Oliy ta’limga qabulni
sinfiy asosda
cheklash

Mustamlakachilik
siyosatining alohida shakli

Quyidagi formulada ifodalaymiz:

A + D = S

Ushbu formulada A belgi shaklini, D uning konseptini, S esa belgining o‘zini ifodalamoqda. Ko‘rinyaptiki, enkratik diskurs tarkibida yuzaga kelgan belgiga xos konsept muayyan bir tuzum (soviet hokimiyati)ning mustamlaka o‘lkada olib borgan adolatsiz va g‘ayriinsoniy tutumini ifodalashga xizmat qilayotir.

“Sarob” romani matni sathida, shu jumladan, enkratik diskurs maydonida mavjud belgilarning aksariyati paradigmatic munosabat shakliga mansub. Bu hodisaning sababi shundaki, badiiy matn yaxlitligini, mukammal badiiy strukturani tashkil etishda boshqa munosabat turlari (sintagmatik aloqalar, binar oppozisiya)ga qaraganda paradigmatic bog‘lanishlar ustuvor o‘ringa ega. Chunki muayyan bir badiiy konsepsiyanı yuzaga chiqarishda bir silsilaga birlashadigan o‘zaro o‘xhash belgilar konseptlarining muhim badiiy-poetik vazifalarni bajara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ролан Барт. Смерть автора./ https://hist.bsu.by/images/stories/files/uch_materialy/muz/3_kurs /Estetika_Leschinskaya/ 4.pdf.
2. B.B. Shukurova. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. (Sh.Xolmirzaev, E. A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida). filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis- sertatsiya. – B. 76
3. Habermas, J. Erläuterungen zum Begriff des kommunikativen Handelns // Habermas J. Vorstudien und Ergänzungen zur Theorie des kommunikativen Handelns. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verl., 1989. S. 571.
4. Абдулла Қаҳҳор.Асарлар. Олти томлик. 3-том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашириёти, 1976. – Б. 10
7. Kholbekov M. Rolan Bart and structural literature. Uzbek language and literature. - Tashkent. 2013. №2 P 23.